

Oriental Journal of Philology

 <p>SUPPORT SCIENCE</p>	<p>ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY</p> <p>journal homepage: http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about</p>	
--	--	---

SEMANTIC CATEGORY OF RESPECT AND ITS STUDY IN ARABIC, UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES**Mabrura Jalolova***Master's student**International Islamic Academy**Tashkent, Uzbekistan**E-mail: mabrurasy9694@gmail.com***ABOUT ARTICLE****Key words:** Semantic, category, Arabic, Uzbek, English, language.**Abstract:** In this article, the topic of the semantic category of respect and its study in Arabic, Uzbek and English languages is analyzed and discussed.**Received:** 26.04.24**Accepted:** 28.04.24**Published:** 30.04.24**HURMAT SEMANTIK KATEGORIYASI VA UNING ARAB O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA O‘RGANILISHI****Mabrura Jalolova***Magistratura talabasi**Xalqaro Islom Akademiyasi**Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: mabrurasy9694@gmail.com***MAQOLA HAQIDA****Kalit so‘zlar:** Semantik, kategoriya, arab, o‘zbek, ingliz, til.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hurmat semantik kategoriya va uning arab o‘zbek va ingliz tillarida o‘rganilishi mavzusi tahlil va muhokama qilingan.**СЕМАНТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ УВАЖЕНИЯ И ЕЕ ИЗУЧЕНИЕ В АРАБСКОМ, УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****Мабрура Жалолова***студент магистратуры**Международная исламская академия**Ташкент, Узбекистан**E-mail: mabrurasy9694@gmail.com***О СТАТЬЕ****Ключевые слова:** Семантика, категория, арабский, узбекский, английский, язык. **Аннотация:** В данной статье анализируется и обсуждается тема семантической категории уважения и ее

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda tilshunoslikda hurmat kategoriyasi va uning antroposentrik jihatlarini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. U alohida til va madaniy hamjamiyat doirasidagi bitta til materialida, shuningdek, turli til va madaniy jamoalardagi bir nechta tillar materialida o'rganiladi, bu esa ushbu sohada madaniyatlararo muloqotni qiyosiy o'rganish imkonini beradi.

Zamonaviy muloqot sharoitida nutq turining yuqori darajada tarqalishi nutq birliklarini o'rganishning dolzarbligini belgilaydi. Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar ilgari tilshunoslik fanining chekkasida bo'lgan hodisalarga e'tibor qarata boshladilar: nutqiy akt, so'zlovchining maqsadi, nutqiy ta'sir, kommunikatorlarning o'zaro ta'siri muammolari, nutq holatining xususiyatlari, kommunikativ muvaffaqiyatsizliklar sabablari, kommunikativ strategiyalar va yozma va so'zlashuv nutqining taktikasi. Nazariy yondashuv asosida so'zlovchining pragmatik munosabatlarini, shuningdek, kommunikatorlarning psixologik va xulq-atvor ta'sirlarini birlashtirib o'rganish nutqiy faoliyat hamda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi nutqning o'zaro ta'sirining xususiyatlari haqida eng to'liq tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, grammatikada so'z shakli va ularning birikish qonuniyatlari o'rganiladi. Demak, grammatika o'zaro uzviy bog'langan morfologiya va sintaksisdan tashkil topadi va so'z uning tayanch unsuri sanaladi.

Kategoriya muayyan ma'no va shakllar tizimidan iborat bo'lib, grammatika tarkibiga kiradi va kengroq tushunchani bildiradi. Chunki, kategoriya keng ma'noda leksik yoki semantik hodisalar tizimidan ham tashkil topishi mumkin. Kategoriya tushunchasi (atamasi) murakkab bo'lib, boshqa fan sohalarida ham uchraydi. Shuningdek, kategoriyalar mohiyati jihatidan o'zaro farqlanadi, ifodalanish usuli, tasvir vositalariga ko'ra bir - biriga o'xshamaydi. Masalan, kelishiklar tizimi sof grammatik kategoriya sanaladi, unlilar tizimi – fonetik, so'z yasovchi affikslar tizimi – leksik-grammatik, *hurmatlash*, *sizsirash hodisalari* ijtimoiy-lisoniy kategoriya hisoblanadi.

Hurmat ma'nosini ifodalovchi *nolisoniy vositalar deb* tabassum bilan qarshi olish, yugurib kelib, tikka turib *egilib ta'zim qilish*, *qo'lni ko'ksiga qo'yib salom berish* kabi hurmat xulqi (odobi) ko'rinishlari tushuniladi. Hurmat ma'nosini ifodalovchi lisoniy va nolisoniy vositalar orqali hurmat ma'nosining ifodalanish darajasi qo'llanish doirasi bir xil bo'lmaydi. Vositalarning tuzilishi, vazifasi, ma'no xususiyatlariga qarab, ularning hurmat kategoriyasidagi mavqei, hurmatni ifodalash darajasi aniqlanadi.

Til hodisalarining ijtimoiy omil bilan bog‘liqligi ayrim tilshunos olimlar tomonidan asoslangan. Keyinchalik bu hodisaga rus va o‘zbek tilshunosligida ham e‘tibor qarata boshladilar. O‘zbek tilida hurmat kategoriyasi ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida mavjud bo‘lib, o‘z leksik-grammatik vositalariga va ifodalanish usullariga egadir.

Shu o‘rinda hurmat kategoriyasining o‘rganilish tarixiga nazar tashlasak, kategoriyani turlicha tushunish oqibatida bo‘lsa kerak hurmat ma‘nosi, sizersirash hodisasi ko‘pchilik tillarda alohida kategoriya sifatida o‘rganilmagan; hurmat ma‘nosini ifodalovchi vositalari esa boshqa unsurlar (masalan: modallikni ifodalovchi unsurlar) qatoriga qo‘shib yuborilgan.

Hurmat kategoriyasiga oid juda ko‘p nazariyalar mavjud. Ulardan ba‘zilarini keyinroq eslatib o‘tamiz, lekin avval hurmat tushunchasi nima ekanligini aniqlaymiz. Shuningdek, u madaniyatlararo muloqot kontekstida qanday amalga oshirilayotganini ko‘rib chiqamiz. Ko‘pchilik insonlar hurmatni qanday to‘g‘ri ifodalanishi kerakligini aniq tasavvur qilaolamiz deb o‘ylashadi. Ammo hurmat ko‘rsatilayotganini aniqlash birinchi qarashda ko‘rinadigan darajada oson emas. Turli odamlar boshqalarga bo‘lgan hurmatini turli hatti-harakatlar bilan ifodalashadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi hurmat kategoriyasi taqqoslab, ulardagi xushmuomalalik tushunchasining ta‘riflarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, “Словарь по этике” lug‘atida hurmat so‘ziga quyidagicha ta‘riflar keltiradi: “Hurmat – odamlarning kundalik xulq-atvor normasi, suhbatdosh bilan muomala qilishning odatiy usuliga aylangan odamni tavsiflovchi axloqiy sifat”. Bu ta‘rifdan kelib chiqadiki, hurmat xushmuomalalikning bir ko‘rinishidir. Xushmuomalalik – bu unga muhtoj bo‘lgan kishiga xizmat qilishga tayyorlik, noziklik va muloyimlik. Va, albatta, nutqning o‘z vaqtida va to‘g‘ri namoyon bo‘lishi, nutq odobi– hurmat ko‘rsatishning ajralmas elementidir. Odob ensiklopediyasida biz hurmatning shunday ta‘rifini ko‘ramiz: “... bu harakatlar majmui bo‘lib, mazmuni va ko‘rinishi axloqiy tamoyillarga muqobillashadi”. Insonlarning muloyim munosabati har doim atrofdagi odamlar tomonidan yuqori baholangan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida hurmat so‘ziga quyidagicha ta‘riflar berilgan:

1. Kimsa yoki narsaga bo‘lgan qadrlash, ulug‘lash tuyg‘usi, shunday tuyg‘uli munosabat.

- *Ota - onaga hurmat. Keksalarga hurmat. Ustozlarga hurmat. O‘z kasbiga hurmat.*

- *Bu oilada o‘zaro yordam, obro‘-e‘tibor mujassamlashgan. (gazetadan)*

- *Hurmat insonga mehnat orqali, kamtarlik, halollik orqali keladi. (Yoshlik)*

- *Mehnatga hurmat halqning eng yuksak dasturlaridan biridir .*

2. Hurmat qilmoq;

- *hurmat bilan munosabatda bo‘lmoq, kamtarlik.*

- *hurmatini qilmoq, hurmat ko‘rsatmoq;*

3. Hurmat taxtasi.

Hurmat tushunchasi borasida N.I. Formanovskaya va T.V. Larining monografiyasida tavsif berilgan. T.V. Larining yozishicha, “hurmat milliy o‘ziga xos kommunikativ kategoriya sifatida tushuniladi, uning mazmuni uyg‘un, mojarolarsiz muloqot va interaktiv muloqotda ijtimoiy qabul qilingan me‘yorlarga rioya qilishga qaratilgan kommunikativ hatti-harakatlarning(lisoniy va nolisoniy) urfga aylangan strategiyalar tizimi (o‘rnatish, saqlash va shaxslararo aloqani tugatish)”. Shuningdek, u hurmat tushunchasi turlimadaniyatlarda turlicha ekanligini ta’kidlaydi. Har bir madaniyatning lisoniy xushmuomalalik tushunchasi o‘z mazmuniga ega. N.I. Formanovskayaning qayd qilishicha, hurmat – bu shaxslarning madaniy kategoriyasini belgilovchi tushuncha bo‘lib, lisoniy voqeyelanishga ega va u, albatta, tilshunoslikda o‘rganilishi lozim. Ingliz tili lug‘atida ham hurmatga turli ta’riflarni kuzatish mumkin. Ulardan ba’zilarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Merriam Webster lug‘atida hurmat so‘ziga bir - necha ta’riflar keltirilgan bo‘ib ular : respect (Noun) (Hurmat ot so‘z turkumi shaklida)

1. *A relation of reference to a particular thing or situation (Muayyan narsa yoki vaziyatga oid munosabati);*

2. *An act of giving particular attention (holat yoki shaxsga nisbatan alohida e’tibor berish harakati);*

3. *High or special regard (yuqori yoki alohida hurmat);*

Hurmat (fe’l so‘z turkumi shaklida)

1. *To consider worthy of high regard (Yuqori hurmatga loyiq deb hisoblash);*

2. *To have reference to (Murojaat qilish);*

Shu bilan birga hurmat so‘zining sinonimlari qatorida regard, respect, esteem, admire so‘zlari berilgan. Ularning barchasi hurmat, hurmat qilmoq, xushfe’l, xushtabiat, odobli sifatida tarjima qilinadi. Asosiy tushuncha –lug‘atda belgilangan hurmat –“suhbatdoshlarning his-tuyg‘ulari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, insonning vaziyatga mos, to‘g‘ri tarzda o‘zini tutishi yoki gapirishi” demakdir. Shunday qilib, yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, hurmat – bu nutqda va harakatlarda odob-axloq qoidalariga rioya qilish, yaxshi tarbiyaning namoyon bo‘lishi: bu odob-axloqning asosi, har qanday kommunikativ muloqotning ajralmas xususiyatidir. Bundan ko‘rinib turibdiki hurmat kategoriyasi o‘zbek va ingliz tillarida nafaqat til hodisasi balki urf - odat va milliy madaniy tushunchalar bilan ham uzviy bog‘liq. Uning o‘rganilishida ilmiy yondashuv bilan birgalikda antroposentrik yondashuvga ham murojaat qilish kerak.

Arab tilida turli kontekstlarda hurmatni ifodalash uchun turli so‘z turkumlari va iboralar qo‘llaniladi. Arab tili madaniy qadriyatlar va islom ta’limotining ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi va arab tilida hurmat tushunchasi xususan, diniy an’analar bilan chuqur bog‘langan. Arab tili - Qur’on tili, Islomning muqaddas kitobi va butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlar tomonidan gapiriladi. Arab tilida diniy so‘zlar chuqur ma’noga ega va hurmat so‘zi ham ehtirom

va sadoqatni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu tilda hurmat ma'nosini ifodalovchi so'zlar, bog'lovchilar ko'p, va ularning barchasi o'z grammatik vazifalariga ega, shulardan ba'zilari:

اِحْتَرَمَ، اِعْتَبَرَ، اِنْتَرَمَ، اِنْتَرَمَ بَ، اَجَلَّ، اَكْبَرَ، بَجَلَّ، بَ، تَقَيَّدَ بَ،

Yuqoridagi so'zlar ketma-ketligida *ihtram* so'zi hurmat so'zini ifodalashda birinchi bo'lib keltirilmoqda. Albatta bu, arab millati uchun hurmat tushunchasi avvalambor atrofdagi insonlarga nisbatan xushmuomala bo'lish, o'zidan kattalarni e'zozlash, kichiklarni izzatlash kerakligini anglatadi. Bu kabi qarashlar arablarga islom dini kirib kelganidan so'ng chuqur singdirildi, hurmat va hurmat qilish tushunchalari muqaddas Qur'on oyatlari va Payg'ambar (r.s.a) hadislarida ham insonlarga buyruq va qo'llanma tarzida ham o'z aksini topgan.

Sunnani Termiziyda keltirilgan quyidagi hadisda ham islomda bu tushunchaning qanchalik katta ahamiyatga egaligini ko'rishimiz mumkin :

"أَلَيْسَ مِنَّا مَنْ لَمْ يَرْحَمْ صَغِيرَنَا وَ يُوقِرْ كَبِيرَنَا"

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam mo'minlarni shunday deb ogohlantirganlar: Kim yoshlarimizga, go'daklarimizga mehribon bo'lmasa, keksalarimiz va kattalarimizni hurmat qilmasa, u bizdan emas.

Yuqoridagi birgina hadisdan ham, arablar orasida hurmatning ahamiyatini guvohi bo'lamiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hurmat – ma'naviyatning muhim ko'rinishlaridan bo'lib, shaxs qadriyatlarini, izzat-nafsi tan olinib qilinadigan munosabat, insoniy fazilat, shaxsni, moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash his-tuyg'usini anglatuvchi tushuncha. Hurmat – qo'pollik, so'kinish, surbetlik, kishini kamsitish, xafa va haqorat qilish kabi jamoatchilik tomonidan inkor etilgan, ma'naviyatga, madaniyatga zid xatti-harakatlarni sodir etishdan o'zini tiya olishdir. Hurmat – katta yoshdagilar, ota-ona, ayollar, ustozlar, do'st, qo'ni-qo'shnilar, o'z guruhi va jamoasi, jamoatchilik mulkiga nisbatan ma'naviy-axloqiy munosabat, ijobiy insoniy sifat hamdir. Mehr-muruvvat, saxovat ko'rsatuvchi insonlar hamisha el oldida hurmat-e'tiborga sazovor bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek va ingliz tillarida xushmuomalalik tushunchasi va hurmat kategoriyasi. Qulmatov Islom Tuxtamish o'g'li. Journal of innovations in social sciences/2023
2. Sodiqova Shirin Baxtiyorovna. O'zbek tilida hurmat kategoriyasi. Monografiya Toshkent 2010.
3. Словарь по этике / Аверинцев С.С. и др.; под ред. А.А. Гусейнова, И.С. Кона. – 6-е изд. – М.: Политиздат, 1989. – 447 с. – Тем. указ.: с. 437-447.
4. Словарь по этике, 1975. Стр. 39
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-5. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

6. Ларина Т.В. Категория вежливости в английской и русской коммуникативных культурах. –М.: Академия, 2003. –С. 23-29.
7. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. –М.: ЭКСМО, 1989. –150 с.
8. “Respect.” Merriam-Webster.com Dictionary, Merriam-Webster, <https://www.merriam-webster.com/dictionary/respect>. Accessed 20 May. 2024.
9. Longman dictionary of contemporary English. Pearson Longman, 2009. –2082p.
10. Qulmatov Islom Tuxtamish o‘g‘li. O‘zbek va ingliz tillarida xushmuomalalik tushunchasi va hurmat kategoriyasi./Journal of innovations in social sciences/Feb-2023
11. Mirsagatova, M. A. (2023). SEMANTICS OF WORDS EXPRESSING RESPECT IN ARABIC. European International Journal of Philological Sciences, 3(11), 32
12. <https://www.linkedin.com/pulse/297-holy-quran-mannerism-3-respect-elderly-senior-series-chaudhary>
13. Shokirkhonova, E., & Yunusova, G. D. (2023). Peculiarities of imitation words in korean and uzbek. Current research journal of philological sciences, 4(10), 55-58.
14. Yunusova, G. D. (2023). Issues in the translation of korean verbs. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(04), 388-392.